



TOSHKENT SHAHRINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI

2024-YIL YANVAR-AVGUST (DASTLABKI MA'LUMOT)



Sanoat statistikasi
boshqarmasi
Tel.: 71-203-88-07


Sanoat statistikasi
boshqarmasi
Tel.: 71-202-80-46

Toshkent shahrining sanoat ishlab chiqarishi

(2024 - yil yanvar- avgust oyida)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2024-yilning yanvar-avgust oylarida shahar korxonalarini tomonidan 100,9 trln.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023-yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 108,0 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (80,7 %)ni hamda ishlab chiqarish hajmi 81,4 trln.so'mni tashkil etdi.





B – Tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, C – Ishlab chiqaradigan sanoat D – Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, E – Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da




Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 5,2% ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda – 22,6% ga, Tog'kon sanoati va ochiq konlarda ishlash – 18,8 % ga, o'sishi kuzatildi Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 22,6 % ga o'sish kuzatildi.

*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2024-yilning yanvar-avgust oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 14,1 trln so'mni yoki jami sanoat mahsulotlari hajmining 14,0 % ini tashkil etdi.


Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi,
(yanvar-avgust oyida, % da)




Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari
tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da


Gaz kondensati




Tabiiy gaz



Neft




Chaqiq tosh



Tog‘- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar - avgust	2024-yil yanvar - avgust	Farqi +/-
Neft, ming t.	447,1	416,4	-30,7
Tabiiy gaz, mln. kub.m.	21860,8	21294,8	-566,0
Gaz kondensati, ming t.	435,6	466,9	31,3
Chaqiq tosh ming t.	136,8	456,5	-319,6

Ishlab chiqaradigan sanoat




2024-yilning yanvar-avgust oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 81,4 trln.so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 105,2 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, (2024- yil yanvar-avgust oyi% da)



O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 4,6 % ni (2023-yilning yanvar-avgust –oyida – (4,3%), o‘rta-yuqori texnologiyali – 20,9 % (23,6%),

o'рта-quyi texnologiyali – 33,9 % (31,8%) va quyi texnologiyalisi – 40,7 % (40,2%)ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 23,6 % (2023-yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 102,2 %), mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 26,4 % (2023-yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 105,1 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 16,8 % (2023-yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 104,5 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 6,8 % (2023- yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 104,5 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 8,0 % (2023-yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 101,3 %) ni tashkil etdi

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati


2024-yilning yanvar-avgust oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 5217,7 tonna Makaron mahsulotlari va shu kabi xamirdan tayyorlangan mahsulotlar (52,7 % ga oshgan), 25061,8 tonna paxatadan yigirilgan ip (9,5 % ga oshgan), 1041,1 ming dona Trikotaj yoki to'qilgan ustki kiyimlar (90,0 martaga oshgan)

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da


Makaron mahsulotlari va shu kabi xamirdan tayyorlangan mahsulotlar




Margarin va yormalar




Yumshoq bug'doy va spelta uni




Pivo




Aroq



Uzum vinosi



Tamaki mahsulotlari



Paxtadan yigirilgan ip



**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari
tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar- avgust	2024-yil yanvar- avgust	Farqi +/-
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming tonna.	90,9	49,3	-41,6
Paxtadan yigirilgan ip, ming tonna.	22,9	25,1	2,2
Margarin va yormalar tonna.	2868,4	0	2868,4
Pivo – mln litr	70,4	77,0	6,6
Sovutgich va muzlatgichlar - ming dona	537,2	295,4	-241,8
Tamaki mahsulotlari, mln. dona	1201,2	2353,1	1151,9
Akril va vinil polimerlari asosidagi bo'yoqlar va laklar, t.	11436,0	10748,0	-688

Metallurgiya sanoati

(2024- yil yanvar- avgust oyida)



FHI
% da



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-avgust oyida metallurgiya sanoati ulushi 16,7% ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 113,3% ga ko'paygan bo'lsa,

2024-yilning yanvar-avgust oyi yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 16,8% ni tashkil qilib, fizik hajm indeksi esa, 104,5 va ishlab chiqarish hajmi 13 664,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish


(yanvar- avgust oyida)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-avgust oyida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 4,4% ni, uning fizik hajm indeksi esa 1,5% ga oshgan bo'lsa,

2024-yilning yanvar-avgust oyi yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 5,4 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 107,7 % ni va ishlab chiqarish hajmi 4 361,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.



FHI
% da



Oziq- ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


(yanvar- avgust oyida)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-avgust oyida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 12,7% ni, uning fizik hajm indeksi esa 4,9 % ga kamaygan bo'lsa,

2024-yilning yanvar-avgust oyi yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 12,7 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 100,8% ni va ishlab chiqarish hajmi 10 381,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.




FHI
% da



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

(yanvar-avgust oyida)

FHI
% da



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-avgust oyida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 11,5% ni, uning fizik hajm indeksi esa 1,3% ga kamaygan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-avgust oyi yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 10,2% ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 98,4% ni va ishlab chiqarish hajmi 8 301,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.


To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

(yanvar-avgust oyida)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-avgust oyida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 5,4% ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 98,5 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024- yilning yanvar-avgust oyida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 4,3% ni tashkil etib, fizik hajm indeksi 101,0% ga tashkil qilib, ishlab chiqarish hajmi 3 529,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

FHI
% da




Kiyim ishlab chiqarish sanoati

(yanvar-avgust oyida)



FHI
% da



2023-yilning yanvar-avgust oyi yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,9% ni, fizik hajm indeksi esa 110,3% ni tashkil etgan bo'lsa,


2024-yilning yanvar-avgust oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2.3 % ni, fizik hajm indeksi 112,4% ni, ishlab chiqarish hajmi esa 1 885,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

(yanvar-avgust oyida)


2023-yilning yanvar-avgust oyi yakuniga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,9% ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 134,3 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-avgust oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,3% ni, fizik hajm indeksi 7,5% ga kamaydi, ishlab chiqarish hajmi esa 2 702,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish

(yanvar-avgust oyida)




2023-yilning yanvar-avgust oyi yakuniga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4% ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 40,1% ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-avgust oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4% ni, fizik hajm indeksi 8,3% ko'paygan bo'lib, ishlab chiqarish hajmi 327,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

(yanvar-avgust oyida)



2023-yilning yanvar-avgust oyi yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,4% ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 3,5% ga kamaygan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-avgust oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,8% ni tashkil etdi, fizik hajm indeksi 113,2% ni, hamda ishlab chiqarish hajmi 3 944,2 mlrd.so'mni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish


(yanvar-avgust oyida)

2023-yilning yanvar-avgust oyi yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,5% ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 111,4% ni tashkil etdi.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-avgust oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,7% ni, fizik hajm indeksi 110,0% ni hamda ishlab chiqarish hajmi 3 827,8 mlrd.so'mni tashkil etdi.




FHI
% da




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

yanvar-avgust oyida

trln.
so'm



FHI
% da




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4,3 trln.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,2% ini) tashkil etdi.

2024-yilning yanvar-avgust oyida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 0,2% ga oshgani kuzatildi.


Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,

(yanvar-avgust oyida, % da)

2023- y.



2024- y.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-avgust	2024-yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	2 559,1	2 297,1	-262,0
Issiqlik energiyasi, ming gkal	6 991,6	6024,3	-967,3
Elektroenergiya uzatish bo'yicha xizmatlar, mln so'm.	618,1	832,9	214,7

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

(yanvar-avgust oyida)



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1,1 trln.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,1% ini) tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,

(yanvar-avgust oyida, % da)



Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-avgust	2024-yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	112,9	247,6	125,7
Xavfli bo'lgan chiqindilar (toksik) kimyoviy, tonna	197,9	163,4	-34,5
Tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta'minlash, mlrd. so'm	220,3	410,1	189,7

O'tgan yilning mos davriga nisbatan xavfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar 69,4% ga, oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 2,0 martaga, tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta'minlash 86,1 foizga o'sish kuzatildi.

Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonolari
(2024-yil 1-sentabr holatiga ko'ra)

Bugungi kunda Toshkent shahrida 11,1 mingta sanoat korxonolari faoliyat ko'rsatmoqda.

2024-yilning yanvar-avgust oylarida Toshkent shahrida 1019 ta yangi sanoat korxonolari tashkil etildi.

Sanoat statistikasi bo'limi

Tel.: (71) 203-88-16